

## THE IMPORTANCE AND PLACE OF BAHODIR JALOLOV'S WORK IN THE DEVELOPMENT OF MAJOR COLOR PICTURES OF UZBEKISTAN.

**Mamatkulov Rashidbek Ravshanbekovich.**

Namangan State University, 2nd year master's degree in fine and applied arts

**Annotation:** The independence of Uzbekistan laid the foundation for the development of national fine arts. During this period, the fine arts of painting, sculpture, graphics, its many genres, the free creative activities of artists and sculptors became widespread. The Uzbek people are a people who truly appreciate art. This article discusses the role and place of Bahodir Jalolov's work in the development of the majestic color image of Uzbekistan, the unique artistic path created by this great artist, as well as the essence of dozens of paintings in museums. considerations are made.

**Keywords:** Bahodir Jalolov, creativity, color image, artist, brush, development, art criticism.

## O'ZBEKISTON MAHOBATLI RANG TASVIR RIVOJIDA BAHODIR JALOLOV IJODINING AHAMIYATI VA O'RNI.

**Mamatqulov Rashidbek Ravshanbekovich.**

Namangan davlat universiteti tasviriy va amaliy bezak sanati 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** O'zbekistonning mustaqilligi milliy tasviriy san'atni taraqqiyotiga zamin yaratdi. Bu davrda tasviriy san'atning rangtasvir, xaykaltaroshlik, grafika turlari, uning ko'pgina janrlari rassom va haykaltaroshlarning erkin ijodiy faoliyatlar keng tus oldi. O'zbek xalqi chinakam ma'noda san'atni qadrlaydigan xalq sanaladi. Ushbu maqolada, O'zbekiston mahobatli rang tasvir rivojida Bahodir Jalolov ijodining ahamiyati va o'rni, ushbu ulug' rassomning yaratgan o'ziga xos san'at yo'li xususida, shuningdek muzeylardan o'rin olgan o'nlab rasmlarining mohiyati haqida fikr va mulohazalar qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Bahodir Jalolov, ijod, rang tasvir, rassom, mo'yqalam, rivojlanish, san'atshunoslik.

Yurtimizda tasviriy san'atning rivojlanishida O'zbekiston badiiy Akademiyasini tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shu jumladan, ushbu Akademiya qoshida Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomchilik va dizalayn instituti, san'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti hamda rassomchilik, dizayn kollejlari faoliyati tashkil qilingan. Bundan tashqari, san'at jurnali ham faoliyat yuritmoqda. Ma'lumki, milliy rassomchilik va dizayn institutida, tasviriy san'at yo'nalishlardagi kollejlarda xalqaro talablarga mos ravishda ta'lim berilib, yetuk kadrlar tayyorlanadi va ular O'zbekiston san'atini yangi bosqichiga olib chiqishda o'z salohiyatini safarbar eta oladilar.

O'zbekiston xalq rassomi - Bahodir Jalolov Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofotining sovrindori, zamonaviy rangtasvir san'ati rivojiga hissa qo'shib kelayotgan iste'dotli rassomlardan biri hisoblanadi. Bahodir Jalolov 1948 yil 27 mayda Toshkent shahrida tavallud topgan. Shuningdek, 1968 yili P. P. Benkov nomidagi Respublika rassomlik bilim yurtini tugatgan. Oradan 6 yil o'tib, ya'ni 1974 yilda esa I.E. Repin nomidagi Sankt-Peterburg rassomlik, haykaltaroshlik va me'morlik institutining bezatish monumental fakultetida ham tahsil olgan. Ma'lumotlarga qaraganda, yoshlik yillarida portret san'atining ustasi Abdulhaq Abdullayevdan ta'lim oladi. Rassom ijodiy faoliyatining dastlabki namunalari milliy his-tuyg'ular turli xil ranglarda o'z ifodasini topadi. O'zbekiston xalq rassomi tasviriy san'at borasidagi tahsilni davom ettirib keyinchalik Chingiz Ahmarov, Ro'zi Choriyev, Milnikov, Korolyovlardan tasviriy san'at sirlarini o'rganishda Davin etgan. Shu boisdan ham u yaratgan portretlarda yuksak mahorat ko'zga aniq tashlanadi. Rassomning ijodidagi tuyg'ular uyg'unligi ixlosmandlarni o'ziga mahliyo etib qo'yishi ham bor gap. Masalan,

October, 30<sup>th</sup> 2021

«Raqsning tug'ilishi» kompozistiyasi o'zbek raqqosalarini ulug'labgina qolmasdan, ularga bo'lgan samimiy hurmat va muhabbatni aka ettiradi.

Bahodir Jalolov portret san'atida ko'p yutuqlarga erishdi. Uning to'laqonli asarlarida o'zbek xalqining sevimli farzandlari siymosi o'z ifodasini topgan. Bu o'rinda ayniqsa akademik rassom O'rol Tansiqboyev, buyuk olim, akademik Vohid Zohidov, san'atning mashhur darg'alari Komil Yormatov, Malik Qayumov, Muhiddin Rahimov, Hamro Rahimova, Akrom Toshkanboev, Damir Ro'ziboev kabi ulug'lar siymosi so'zimizga misoldir. Rassom inson shaxsini doimo o'rganishga, uni har tomonlama his qilishga intiladi. Darhaqiqat, yuqorida ko'rganimizdek Bahodir Jalolov ijodiy faoliyatining asosiy ko'lami insonlar obraziga, ya'ni portretlar yaratishga qaratilgan. Tasviriy san'atda u kishi o'z rangin olamini yangidan yangi jilolar bilan tobora boyitib kelmoqda.

Eng muhimi, Bahodir Jalolov erishgan yetuklikning yana bir jihati shundaki, u Sharq va G'arb an'analarini o'zlashtirib, ana shu an'analardagi mushtaraklikni topib, uni yuzaga chiqarishga muvaffaq bo'la olgan rassomdir. Shu sababli ham xorijiy davlatlarning san'at ixlosmandlari e'tiboriga muyassar bo'lgan. Bundan tashqari, Bahodir Jalolov o'zining monumental pannolari bilan dunyoning ilg'or davlatlarida hashamatli saroy va binolarni bezatib kelmoqda. Rassom ijodiga taniqli olim Tilab Mahmudov baho berib shunday deydi: «Bahodir uchun inson va insoniyat tarixi jumboq edi. U bu jumboqni yechishga, o'z xalqi tarixini bashariyat tarixi bilan hamohang nuqtalarini topishga harakat qiladi». Darhaqiqat, rassom keng tafakkurli ijodkor sifatida odam, olam, koinot sirlarini o'rganishga intiladi.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy faoliyatning nazariyasini muntazam o'rganish, tasviriy san'at ta'limini muvaffaqiyatli o'zlashtirishning asosiy shartlaridandir. Rangtasvir qonun-qoidalarini puxta egallagan talabagina amaliy ijodda samarali shug'ullanishi mumkin. "Kimda-kim ilmni amaliyotsiz tasavvur etsa, - u bamisoli suzishga eshkaksiz chiqayotgan qayiq haydovchisidir va u hech qachon qayerga ketayotganligiga to'la ishonch hosil qila olmaydi", - deya ta'kidlagan Leonardo da Vinchi. Ayniqsa rangtasvir sohasida amaliyot hamisha kuchli nazariyot bilan bog'liq holda amalga oshirilishi zarur va bularsiz hech narsaga erishib bo'lmaydi. Tasviriy san'atning tarixi, rangtasvirni amaliy o'rganishda juda katta metodik tajribaga ega. Yurtimizda rang tasvir rivojida Bahodir Jalolov ijodining ahamiyati va o'rni o'ziga xosligi shundaki, har bir mo'yqalam sehri bilan yaratilgan san'at asarlarida rasmiy ma'no mavjud. Andijon tarixi va madaniyati davlat muzeyidan o'rin olgan rasmlaridan birida duo qilib o'tirgan ayol tasviri tilla rang bilan tasvirlangan. Bu kabi rasmlari orqali rassom chindan ham O'zbekiston rang tasvir san'atiga ulkan hissa qo'shgan deb bimalol ayta olamiz.

#### **Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati.**

1. Tojiev B. — "Dastgohli rangtasvir" fanidan ma'ruzalar matni. T.,2000.-y
2. Boymetov B. — "Qalamtasvir" Darslik 1-qism. Toshkent, 2006-y
3. Abdirasilov S., Tolipov N. — "Rangtasvir" Toshkent , 2005.-y
4. Tojiev B. — "Qalamtasvir asoslarini o'rganish". Toshkent 1994.y